

SUD-BIOLOGIK EKSPERTIZA TIZIMIDA LABORANT FAOLIYATINING O'RNI



Vaxobova Shaxnoza Egamberdievna - RSTEIAM
Toshkent filiali oliy toifali sud-biologik bo'lim laboranti



Nizamutdinova Gulchexra Raxmatullayevna - RSTEIAM
Toshkent filiali oliy toifali sud-biologik bo'lim laboranti



Mirzakarimova Dilafruz Akmalovna - RSTEIAM
Toshkent filiali sud-biologik bo'lim laboranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada sud-biologik bo'lim laborantining funksional vazifalari, mehnat faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda sud-tibbiy ekspertiza tizimidagi o'rni yoritib berilgan. laborant faoliyatida qonunchilik talablariga rioya qilish, sanitariya-epidemiologik havfsizlikni ta'minlash va laboratoriya tadqiqotlarini sifatli bajarishning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: sud-tibbiy ekspertiza, sud-biologik bo'lim, laborant, biologik tadqiqotlar, sanitariya-epidemiologik rejim, ashyoviy dalillar, laboratoriya usullari, ekspertiza natijalari.

Аннотация. В данной статье освещены функциональные обязанности лаборанта судебно-биологического отдела, основные направления его трудовой деятельности, а также его роль в системе судебно-медицинской экспертизы. Отмечена значимость соблюдения законодательных требований, обеспечения санитарно-эпидемиологической безопасности и качественного проведения лабораторных исследований в работе лаборанта.

Ключевые слова: судебно-медицинская экспертиза, судебно-биологический отдел, лаборант, биологические исследования, санитарно-

эпидемиологический режим, вещественные доказательства, лабораторные методы, результаты экспертизы.

Annotation. This article highlights the functional responsibilities of a laboratory technician in the forensic biology department, the main areas of their professional activity, and their role within the forensic medical examination system. The importance of complying with legal requirements, ensuring sanitary and epidemiological safety, and conducting laboratory research with high quality is emphasized in the technician's work.

Key words: forensic medical examination, forensic biology department, laboratory technician, biological research, sanitary and epidemiological safety, physical evidence, laboratory methods, examination results.

MAVZUNING DOLZARBLIGI.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, tergov va sud jarayonlarini xolis hamda adolatli olib borishda sud-tibbiy ekspertizaning o'rnini tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, sud-biologik tadqiqotlar orqali biologik ob'ektlarni aniqlash, ularning tur va guruh mansubligini belgilash hamda daliliy ahamiyatga ega ma'lumotlarni olish huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonlarda sud-biologik bo'lim laborantlarining kasbiy faoliyati hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sud-tibbiy ekspertiza sohasida tadqiqot usullarining takomillashib borishi, biologik materiallar bilan ishlashda yuqori aniqlik va xavfsizlik talablarining kuchayishi laborantlardan chuqur bilim, amaliy ko'nikma va mas'uliyatni talab etadi. Shu bilan birga, sanitariya-epidemiologik xavfsizlikni ta'minlash, biologik materiallar bilan ishlashda xalqaro va milliy standartlarga muvofiq faoliyat olib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Shu sababli sud-biologik bo'lim laborantlarining funksional vazifalari, mehnat faoliyatini tashkil etish hamda ularning sud-tibbiy ekspertiza tizimidagi o'rnini o'rganish va yoritib berish hozirgi davr talablaridan kelib chiqqan holda dolzarb ahamiyatga ega.

Sud-biologik bo'lim laboranti faoliyatining asosiy yo'nalishlari.

Sud-tibbiy ekspertiza tizimida sud-biologik tadqiqotlar jinoyat ishlarini tergov qilish va sud jarayonlarida daliliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etishda muhim o'rin egallaydi. Ushbu tadqiqotlarni ilmiy jihatdan asoslangan holda va belgilangan tartib-qoidalarga muvofiq o'tkazishda sud-biologik bo'lim laborantlarining faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Sud-biologik bo'lim laboranti laboratoriya tadqiqotlarining sifatli va aniq bajarilishi, biologik ob'ektlarning to'g'ri tayyorlanishi va hujjatlarning belgilangan

tartibda yuritilishi sud-tibbiy ekspertiza natijalarining ishonchliligi va xolisligini ta'minlaydi.

Laborant o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Sud-ekspertizasi haqidagi qonuni", O'zbekiston Respublikasining sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 01.06.2012 yilda 153-son buyrug'i asosida tasdiqlangan "Sud-tibbiy ekspertiza byurosining tuzilmalarida ekspertiza va tekshiruvlarni o'tkazish qoidalari", jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi hamda sud-tibbiy ekspertizaga oid boshqa me'yoriy hujjatlar asosida olib boradi.

Laborantning yana bir asosiy vazifalaridan biri O'zbekiston Respublikasi Bosh sanitariya vrachining 2017 yil 10 yanvardagi 0342-17-sonli SanQvaMni to'liq bilishi va sanitariya-epidemiologik rejimga qat'iy rioya qilishdir. U dezinfeksiya vositalarini tayyorlaydi, laboratoriya idishlari va asbob-uskunalarini tozalash va zararsizlantirish ishlarini bajaradi, shuningdek, texnika xavfsizligi va ichki mehnat tartibi qoidalariga qat'iy amal qiladi.

Ish jarayonida laborant hujjatlar bilan ishlaydi: kelib tushgan materiallarni ro'yxatga oladi, ish jurnallarini yuritadi, ekspert xulosalari va dalolatnomalarini rasmiylashtirishda ishtirok etadi. Laboratoriya ish joyini tayyorlash, reaktiv va reagentlarni hozirlash ham uning kundalik vazifalariga kiradi.

Sud-biologik tadqiqotlar jarayonida laborant vrach bilan hamkorlikda ashyoviy dalillarni ko'zdan kechiradi hamda qon, uning dog'lari va boshqa biologik ajralmalarni aniqlash, ularning tur va guruh mansubligini belgilash uchun turli laborator usullarni qo'llaydi. Shuningdek, soch, suyak, mushak va boshqa biologik materiallarni morfologik va immunologik tekshiruvlar uchun tayyorlaydi.

Tadqiqot yakunlangandan so'ng laborant ekspert bilan birgalikda biologik materiallarni belgilangan tartibda qaytadan o'raydi, muhrlaydi, rasmiylashtiradi va ularni sud-tergov idoralari tomonidan olib ketishga tayyorlaydi.

Bundan tashqari umumiy profil ekspertlari tomonidan taqdim qilingan biologik ob'ektlar (murda qoni, suyagi, mushagi v.h.) ni ham yo'q qilishga tayyorlaydi.

XULOSA.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib, quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

- Sud-biologik bo'lim laborantining faoliyati yuqori mas'uliyat, aniqlik va kasbiy bilimlarni talab qiladi. Laborant tomonidan sanitariya-epidemiologik qoidalarga qat'iy rioya qilinishi, laboratoriya tadqiqotlarining belgilangan usullar asosida o'tkazilishi va hujjatlarni to'g'ri yuritilishi sud-tibbiy ekspertizalarning ishonchli va xolis natijalarini ta'minlaydi.

- Shuningdek, laborantning vrachlar bilan hamkorlikda ishlashi, biologik materiallarni to'g'ri tayyorlashi va tadqiqot natijalarini o'z vaqtida rasmiylashtirishi sud-tergov tizimida adolat qaror topishiga xizmat qiladi. Demak, sud-biologik bo'lim

laborantining kasbiy mahorati va mas'uliyatli mehnati sud-tibbiy ekspertiza sohasida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni ***“Sud ekspertizasi to'g'risida”***.
2. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining “Sud-biologik ekspertiza va tekshiruvlarni o'tkazish qoidalari” to'g'risidagi 153-sonli buyrug'iga 4-ilova. 2012 yil 01 iyun.
3. Z. A. G'iyosov “Sud tibbiyoti” Toshkent 2018 y.